



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

191400, Sherobod tumani, Navoiy ko‘chasi, 22-uy, tel:0(376)3222621, fax: 0(376)3221033, sherobod@exat.uz

---

2023 - yil 3 - mart

45-8-119-Q/23

Sherobod tuman hokimligi

**Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 18-yanvardagi “Viloyatda  
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada  
takomillashtirish to‘g‘risida”gi 15-8-0-Q/23-sonli qarorining ijrosini  
ta‘minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qarori talablari ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 10-sentabrdagi 03-07/6208-sonli xati va 18-oktabr kunidagi 01-07/6859-sonli tavsiyasiga muvofiq viloyat hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadidagi viloyat hokimining 2023-yil 18-yanvardagi 15-8-0-Q/23-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida

**Q A R O R Q I L A M A N**

1. Viloyat viloyat hokimining 2023-yil 18-yanvardagi “Viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 15-8-0-Q/23-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun kabul qilinsin.

Ushbu qarorga asosan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom, aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti, -xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma, kontragentlarni o‘rganishga oid yo‘riqnoma, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish

bo'yicha yo'riqnoma, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti, korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti, davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom, viloyat hokimligining shartnomalariga korrupsiyaga qarshi takliflarni kiritish bo'yicha yo'riqnoma, viloyat hokimligi tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnoma tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tuzilmadagi boshqarma va bo'linma rahbarlari, tuman hokimligi boshqaruv apparatining xodimlari odob-axloq qoidalari talablariga so'zsiz rioya etsin.

3. Tuman hokimligi Tashkiliy nazorat guruhi rahbari (J.Himmatov):

tuman hokimligi boshqaruv apparati xodimlari va yangi ishga kirayotgan xodimlarning odob-axloq qoidalari bilan to'liq tanishtirilishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

Viloyat hokimining mazkur qarorning 1-bandi bilan tasdiqlangan nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarga tuman hokimligida rioya etilishini ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni kuchaytirish choralarini ko'rsin.

4. Tumandagi tashkilot va korxonalar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida mazkur qarorga asosan idoraviy hujjatlar qabul qilinishini ta'minlasin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosari va tuman hokimligi Tashkiliy nazorat guruhi rahbari J.Himmatov zimmalariga yuklansin.

**Sherobod tumani hokimi**



**Xalilov Z.**